



O'ZBEKISTONDA ALTERNATIV MOLIYA EKOTIZIMI: INFRATUZILMA VA IMKONİYATLAR ASOSIDA BOSQICHLI RIVOJLANISH MODELII

PhD Zayniddinov Ruhiddin

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

ORCID: 0000-0002-2778-8147

r.zayniddinov@tsue.uz

Annotatsiya. Mazkur tadqiqotning maqsadi O'zbekiston moliya bozoridagi zaruriy infratuzilma va imkoniyatlardan kelib chiqib, mavjud alternativ moliya elementlarini hisobga olgan holda mamlakatda alternativ moliya ekotizimini bosqichma-bosqich rivojlantirish modelini ishlab chiqishga qaratilgan. Ushbu maqsadga erishishda sifat yondashuvidan keng foydalanilgan. Natijada, mamlakatda alternativ moliya ekotizimini rivojlantirishda institutsional asoslarni ishlab chiqish, kadrlar tayyorlash siyosati va islom moliyasi bo'yicha xabardorlikni oshirish, islom kapital bozori instrumentlarini tatbiq etish, rivojlanish dasturlarini ishlab chiqish bo'yicha yo'nalish va amalga oshirish bosqichlari ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: alternativ moliya, institutsional asoslar, kadrlar tayyorlash siyosati, xabardorlik, islom kapital bozori instrumentlari, Markaziy bank, vazirliklar, oliy ta'lim muassasalari.

АЛЬТЕРНАТИВНАЯ ФИНАНСОВАЯ ЭКОСИСТЕМА В УЗБЕКИСТАНЕ: ЭТАПНАЯ МОДЕЛЬ РАЗВИТИЯ НА ОСНОВЕ ИНФРАСТРУКТУРЫ И ИНСТИТУЦИОНАЛЬНОГО ПОТЕНЦИАЛА

PhD Зайниддинов Рухиддин

Ташкентский государственный экономический университет

Аннотация. Целью данного исследования является разработка поэтапной модели формирования экосистемы альтернативных финансов в Республике Узбекистан с учётом существующей инфраструктуры финансового рынка страны, институционального потенциала и доступных инструментов альтернативного финансирования. Для достижения обозначенной цели в работе преимущественно применяется качественный методологический подход. Проведённый анализ позволил сформулировать ключевые направления политики и этапы реализации по созданию и развитию национальной экосистемы альтернативных финансов. В частности, в исследовании определены формирование институциональной основы поддержки альтернативного финансирования, разработка стратегии подготовки кадров и повышение осведомлённости в сфере исламских финансов, поэтапное внедрение инструментов исламского рынка капитала, и подготовка и последовательная реализация программ развития.

Ключевые слова: альтернативные финансы, институциональная среда, политика подготовки кадров, осведомлённость, инструменты исламского рынка капитала, Центральный банк, министерства, высшие учебные заведения.

THE ALTERNATIVE FINANCE ECOSYSTEM IN UZBEKISTAN: A STAGED DEVELOPMENT MODEL BASED ON INFRASTRUCTURE AND CAPACITY

PhD **Zayniddinov Rukhiddin**

Tashkent State University of Economics

Abstract. *The aim of this study is to develop a phased model for the gradual formation of an alternative finance ecosystem in Uzbekistan, taking into account the country's existing financial market infrastructure, institutional capacity, and available alternative finance instruments. To achieve this objective, the study adopts a predominantly qualitative approach. The analysis results in the formulation of key policy directions and implementation stages for the development of an alternative finance ecosystem in the country. In particular, the study outlines the establishment of an institutional foundation to support alternative finance, the design of a human capital development strategy and the enhancement of awareness in the field of Islamic finance, the phased introduction of Islamic capital market instruments and the preparation and sequencing of development programs.*

Keywords: *alternative finance, institutional framework, human capital development policy, awareness, Islamic capital market instruments, Central Bank, ministries, higher education institutions.*

Kirish.

Jahon moliya tizimining so'nggi o'n yilliklarda kuzatilgan transformatsiyasi global iqtisodiy muvozanat, kapital oqimlari va investitsiya jarayonlariga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. An'anaviy bank tizimiga asoslangan moliyalashtirish mexanizmi o'zining muhim afzalliklariga qaramay, zamonaviy iqtisodiyotning murakkab talablarini to'liq qondira olmayotgani kuzatilmoqda. Xususan, iqtisodiy o'sishni ta'minlash, kichik va o'rta biznes subyektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash, hamda aholining turli qatlamlarini moliyaviy xizmatlar bilan qamrab olishda muqobil yechimlar zarur bo'lib bormoqda. Shu nuqtayi nazardan, alternativ moliya ekotizimi jahon miqyosida moliya bozorining barqarorlik va diversifikatsiyasini ta'minlovchi strategik yo'nalish sifatida e'tirof etilmoqda.

O'zbekiston Respublikasida oxirgi yillarda moliya bozorini liberallashtirish, kapital bozorini rivojlantirish, banklar faoliyatini raqamlashtirish va xorijiy investitsiyalarni jalb etish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Biroq mavjud tizimning asosiy qismi hanaiz tijorat banklari faoliyatiga tayanib kelmoqda. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2024-yil yakunida tijorat banklari moliya bozoridaagi aktivlarning qariyb 95 foizini egallagan, kapital bozorining ulushi esa atigi 3 foiz atrofida shakllangan. Bu holat moliya sektorida yuqori darajadagi konsentratsiya, resurslarning cheklangan taqsimoti hamda alternativ instrumentlarning yetarli darajada rivojlanmaganligidan dalolat beradi. Shu bilan birga, moliya xizmatlariga bo'lgan talabning o'sishi, xalqaro investitsiya oqimlarini jalb etish zarurati hamda iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash omillari O'zbekiston uchun yangi yo'nalishlarni izlashni talab etmoqda. Jumladan, islomiy moliya, kraudfanding, peer-to-peer kreditlash, fintex yechimlari va yashil moliya kabi vositalar bugungi sharoitda muqobil yechim sifatida maydonga chiqmoqda. Ushbu instrumentlar nafaqat moliyaviy inklyuziyani kengaytiradi, balki iqtisodiyotda resurslardan samarali foydalanish, investitsiya manbalarini diversifikatsiya qilish va barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Xalqaro tajribaga murojaat qiladigan bo'lsak, Malayziya, Indoneziya, Birlashgan Arab Amirliklari va Turkiya kabi davlatlarda alternativ moliya instrumentlari allaqachon moliya tizimining ajralmas bo'lagiga aylangan. Masalan, Malayziyada islomiy moliya bozor ulushi umumiy moliya tizimining 30 foizidan ortig'ini tashkil etadi, Turkiyada esa islomiy kraudfanding startaplarni moliyalashtirishning asosiy manbalaridan biri sifatida faol

qo'llanilmoqda. Bu tajribalar O'zbekiston uchun ham moslashtirilishi mumkin bo'lgan samarali yo'nalishlar mavjudligini ko'rsatadi.

Mamlakatimiz sharoitida alternativ moliya ekotizimini shakllantirish bir nechta obyektiv zaruratlar bilan belgilanadi. Birinchidan, aholining muayyan qismi diniy e'tiqodlar sababli an'anaviy bank xizmatlaridan foydalanmasligi moliyaviy inklyuziya darajasini pasaytiradi. Ikkinchidan, kichik va o'rta biznes subyektlari uchun mavjud kreditlash shartlarining qattiqligi va yuqori garov talablari ularning moliyaviy resurslardan foydalanishini cheklaydi. Uchinchidan, "yashil iqtisodiyot" tamoyillari asosida amalga oshirilayotgan loyihalarni moliyalashtirishda an'anaviy instrumentlarning yetarli darajada samarali emasligi yangi vositalarni joriy etishni taqozo etadi. To'rtinchidan, O'zbekistonning xalqaro moliya bozorlariga integratsiyalashuvi uchun global standartlarga mos alternativ instrumentlarni joriy etish zaruriyati mavjud.

Shunday qilib, O'zbekistonda alternativ moliya ekotizimini rivojlantirish nafaqat moliya bozorining diversifikatsiyasini ta'minlaydi, balki iqtisodiyotning investitsion salohiyatini kengaytiradi, aholining moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini oshiradi va barqaror rivojlanish strategiyasiga mos yangi moliyalashtirish manbalarini yaratadi. Bu jarayon bosqichma-bosqich amalga oshirilishi lozim: avval normativ-huquqiy bazani takomillashtirish, so'ngra pilot loyihalarni sinovdan o'tkazish, keyinchalik bozor infratuzilmasini integratsiyalash va nihoyat xalqaro standartlarga mos to'liq ekotizimni shakllantirish. Ushbu tadqiqotimizda O'zbekistonda alternativ moliya ekotizimini rivojlantirish yo'lida amalga oshirilishi kerak bo'lgan ishlar yuzasidan dual bank ekotizimi hamda islom kapital bozori ekotizimini shakllantirish istiqbollarini ko'rib chiqamiz.

Adabiyotlar sharhi.

Alternativ moliya ekotizimi bugungi kunda nafaqat moliyaviy xizmatlar diversifikatsiyasi, balki iqtisodiy barqarorlik, investitsion faollik va moliyaviy inklyuziya nuqtayi nazaridan ham strategik yo'nalish sifatida qaralmoqda. Xalqaro ilmiy adabiyotda ushbu yo'nalish bir necha asosiy yo'nalishlar bo'yicha shakllangan. Bular, islomiy moliya va uning institutsional infratuzilmasi, kraudfanding va peer-to-peer moliyalashtirish mexanizmlari, fintex (fintech) va raqamli moliya, kapital bozorini chuqurlashtirish orqali real sektorni moliyalashtirish hamda davlatning roli va tartibga solish arxitekturasini kabilarni o'z ichiga qamrab oladi. Ushbu yo'nalishda amalga oshirilgan tadqiqotlar bilan quyida tanishib chiqamiz:

Birinchi yo'nalish. Islomiy moliya va uning davlat moliyaviy tizimidagi roli - Malayziya, Indoneziya, Saudiya Arabistoni va Turkiya tajribasi asosida keng yoritilgan. Jumladan, Chapra (2008) ta'kidlaganidek, foizga asoslanmagan moliyalashtirish mexanizmi ijtimoiy adolat, riskni bo'lishish va real sektor bilan bevosita bog'liqlik tamoyillari orqali moliya tizimining ijtimoiy samaradorligini oshiradi, shu orqali moliyaviy inklyuziyani kengaytiradi va moliya bozorining barqarorligini kuchaytiradi. Qureshi (2019) ham shunga o'xshash tarzda islomiy moliya rivojlanayotgan davlatlar uchun nafaqat alternativ, balki komplementar kanal vazifasini bajarishini, ya'ni an'anaviy bank tizimini to'ldiruvchi sifatida xizmat qilishini ta'kidlaydi. Bu yondashuv, ayniqsa aholining diniy e'tiqodlari sababli tijorat banki kreditlari va depozitlariga nisbatan ehtiyotkor bo'lgan qatlamlar mavjud bo'lgan hududlar uchun dolzarbdir, bu esa O'zbekiston sharoitida ham kuzatiladi. Shuningdek, El-Gamal (2006) islomiy moliya institutlarini faqat shariatga mos mahsulotlar to'plami emas, balki hukumat, markaziy bank va kapital bozori o'rtasida uzviy muvofiqlashtirilgan institutsional arxitektura sifatida talqin qiladi. Bu yondashuv O'zbekistonda "dual bank" (an'anaviy va islomiy) modelini bosqichma-bosqich joriy etish zarurligini asoslab beradi.

Ikkinchi muhim yo'nalish - alternativ moliyalashtirishning bankdan tashqari shakllari, xususan kraudfanding, peer-to-peer moliyalashtirish va boshqa platformaviy yondashuvlar -

kichik va o'rta biznes subyektlari uchun kapitalga kirish imkoniyatini sezilarli darajada kengaytirishi ko'rsatilgan. Ziegler va hammualliflarining global kraudfanding bozoriga oid tahlillari (2021) shuni ko'rsatadiki, mazkur mexanizm nafaqat startaplar uchun dastlabki moliyaviy "ko'prik" vazifasini bajaradi, balki an'anaviy kreditlash mexanizmi bilan ta'minlanmagan sektorlar va hududlar uchun ham moliyaviy inklyuziyani oshiradi. Shunday qilib, kraudfanding va peer-to-peer moliyalashtirish mexanizmi iqtisodiyotda resurslarning markazlashgan bank tizimidan tashqariga qayta taqsimlanishini ta'minlaydi va o'sish imkoniyatlarini oshiradi, bu esa O'zbekistonda KOB subyektlarining garov talablari va kredit shartlaridan kelib chiqadigan cheklovlar sharoitida alohida ahamiyat kasb etadi.

Uchinchi yo'nalish. Fintex va raqamli moliya - moliyaviy xizmatlar arxitekturasini o'zgartirayotgan omillar sifatida talqin qilinadi. Arner, Barberis va Buckley (2016) fintexni faqat texnologik innovatsiya sifatida emas, balki regulyatorlarning o'rni, iste'molchi himoyasi, shaffoflik, tezkorlik va transaksion xarajatlarni kamaytirish orqali moliyaviy tizimga bo'lgan ishonchni qayta qurish vositasi sifatida baholaydi. Bu, ayniqsa, yosh demografik tarkibga ega hamda yuqori mobil raqamli faol aholiga ega bozorlar uchun dolzarbdir. Rivojlanayotgan mamlakatlar tajribasida fintex moliyalashtirishning "mikro" komponentini tezlashtiradi, masalan, kichik aylanma kapital ehtiyojlarini qondirish, hisob-kitobni tezlashtirish, soliq intizomini kuchaytirish va norasmiy iqtisodiyotning rasmiy segmentga inklyuziyasini rag'batlantiradi.

To'rtinchi yo'nalish. Kapital bozorining chuqurligi va real sektor moliyalashtirilishi o'rtasidagi bog'liqlik - ko'plab iqtisodiyotlarda o'sish barqarorligining kalit omillaridan biri sifatida qaraladi. Levine va Zervos (1998) moliya bozorlarining kapitallashuvi, likvidlik darajasi va institutlar sifati uzoq muddatli iqtisodiy o'sish bilan uzviy bog'liq ekanini ko'rsatadi, ya'ni bank markazlashgan tizimdan ko'ra, ko'p manbali moliyalashtirish iqtisodiy tizimni shoklarga nisbatan chidamli qiladi va resurslarni samaraliroq taqsimlaydi. Bu nuqtayi nazar O'zbekiston uchun ham dolzarb: hozir moliyalashtirishning juda katta qismi tijorat banklari zimmasida bo'lib, moliya bozori va islomiy kapital bozori instrumentlari (ijara, murobaha va h.k.) hali to'laqonli faoliyat ko'rsatmayapti hamda sukuk chiqarish esa joriy etilmagan. Shu jihatdan, bosqichma-bosqich alternativ moliya ekotizimini shakllantirish, ya'ni tijorat banklari bilan parallel ishlaydigan islomiy moliya institutlari, maxsus investitsiya fondlari va raqamli platformalar tizimiga o'tish, tizimiy konsentratsiya xatarlarini kamaytirishi mumkin.

Bundan tashqari, MDH doirasida olib borilgan tadqiqotlar ham shuni ko'rsatadiki, post-sovet iqtisodiyotlarida moliyaviy tizim ko'pincha bank markazlashgan bo'lib qolmoqda va bu real sektorga kapital oqimini chegaralaydi. Masalan, Abdukarimov va Karimova (2020) Markaziy Osiyo davlatlarida, xususan, O'zbekistonda, kichik biznes uchun moliyalashtirish kanallari torligi sababli davlat yoki bank resurslariga ortiqcha yuk tushishini ta'kidlaydi. Shuning uchun bozor mexanizmiga asoslangan muqobil instrumentlarni huquqiy jihatdan tan olish va tartibga solish bosqichma-bosqich amalga oshirilishi zarurligini ilgari suradi. Shunga hamohang ravishda, Nabiyeu (2019) MDHdagi moliyalashtirish tuzilmalarini tahlil qilar ekan, islomiy moliya elementlarining huquqiy integratsiyasi, agar to'g'ri yo'naltirilsa, xorijiy investitsiya oqimlarini diversifikatsiya qilish va xalqaro kapital bozorlariga chiqish imkoniyatini oshirishi mumkinligini qayd etadi. Qozog'iston tajribasi ham shuni ko'rsatadiki, maxsus huquqiy rejimlar (masalan, erkin moliyaviy zonalar) orqali islomiy moliya infratuzilmasini pilot rejimida ishga tushirish investor ishonchini oshirishga xizmat qiladi (Sabitov, 2021).

Shuningdek, mazkur yo'nalishda milliy ilmiy bazaning shakllanib borayotgani ham e'tiborga molikdir. Xususan, S.Z. Abrorovning "Islom kapital bozori ekotizimini shakllantirish istiqbollari" (2024) nomli monografiyasida O'zbekistonda islomiy moliya va kapital bozorini

rivojlantirish faqat moliyaviy mahsulotlarni joriy etish masalasi emas, balki normativ-huquqiy baza, regulyatorlar o'rtasidagi muvofiqlashtirilgan boshqaruv va institutsional infratuzilma talab etadigan tizimli jarayon sifatida talqin etiladi. Muallif, shuningdek, islomiy kapital bozori bozor intizomi, shaffoflik va investor ishonchini oshiruvchi mexanizm sifatida funksional ahamiyat kasb etishini ta'kidlaydi. Abrorovning keyingi ilmiy ishida (2025) sukuk asosidagi moliyalashtirish - O'zbekiston sharoitida real sektor loyihalarini jalb qilish va uzoq muddatli moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilishda strategik vosita ekanligi asoslab beriladi.

Shu bilan birga, ushbu masalada R.X. Zayniddinovning tadqiqotlari ham dolzarb nazariy-amaliy asos beradi. Muallif Turkiya va Birlashgan Arab Amirliklarida shakllangan dualistik moliya tizimini tahlil qilarkan, an'anaviy bank-moliya institutlari va islomiy moliya institutlarining parallel faoliyat yuritishi nafaqat moliyaviy inklyuziyani kengaytirishini, balki xorijiy investitsiyalarni jalb etishda raqobatbardoshlikni oshirishini qayd etadi. Shuningdek, Malayziya, Indoneziya va Bangladesh tajribasi asosida, Zayniddinov dual banklashgan modelning muvaffaqiyati qat'iy tartibga solish me'yorlari, islomiy moliyaviy mahsulotlarning standartlashtirilganligi va davlatning strategik qo'llab-quvvatlashi bilan chambarchas bog'liqligini ko'rsatadi. Ushbu tahlillar O'zbekiston sharoitida ham bosqichma-bosqich dual tizimni shakllantirish imkoniyati mavjudligini, milliy moliya arxitekturasida ichida parallel yo'lak qurish imkoniyatlarini ko'rish zarurligini ilmiy asoslab bergan.

Umuman olganda, xalqaro va mintaqaviy adabiyotlarni taqqoslash shuni ko'rsatadiki: birinchidan, alternativ moliya shunchaki "g'ayrioddiy bank mahsulotlari" to'plami emas, balki an'anaviy banklar, kapital bozorlari, davlat nazorati va xususiy innovatsion platformalar o'rtasida muvofiqlashtirilgan ekotizimdir; ikkinchidan, ushbu ekotizimni muvaffaqiyatli shakllantirish, odatda, bosqichma-bosqich amalga oshiriladi - avval normativ-huquqiy asos, keyin pilot loyihalar, so'ngra kengaytirilgan bozor infratuzilmasi va faqat shundan keyin to'liq bozorlashgan model; uchinchidan, bu jarayonning markazida inson kapitali turadi. Ya'ni islomiy moliya, fintex regulyatsiyasi, risk-menejment, shariatga mos audit va kapital bozorlarida ishlay oladigan malakali mutaxassislar tayyorlash. O'zbekiston sharoitida ham aynan shunday ketma-ketlik - institutsional asos → inson kapitali → instrumentlar → bozor mexanizmi → xalqaro integratsiya - iqtisodiy, ijtimoiy va huquqiy jihatdan maqbul yo'l sifatida ko'rilmogda.

Shu ma'noda, mavjud adabiyotlar nafaqat alternativ moliya ekotizimini nazariy jihatdan asoslaydi, balki ushbu ekotizimning O'zbekiston sharoitida qanday qilib evolyutsion va bosqichli tarzda shakllanishi mumkinligini ham ko'rsatadi. Boshqacha aytganda, xalqaro tajriba, MDH rivojlanish yo'li va milliy ehtiyojlar bir nuqtada tutashadi: institutlar, inson kapitali va tartibga solish uyg'unlashgan taqdirda, alternativ moliya nafaqat qo'shimcha moliyaviy kanal, balki makroiqtisodiy barqarorlik va investitsion suverenitet omiliga aylanadi.

Mazkur tadqiqotimiz yuqorida nomlari keltirilgan olimlarning ilmiy ishlarini qo'llab-quvvatlab, institutsional asoslar, kadrlar tayyorlash siyosati, kapital bozori instrumentlarini joriy etish hamda davlat institutlari o'rtasidagi muvofiqlashtirilgan boshqaruvning izchil ketma-ketligi bo'yicha yagona tizimli yondashuv shakllanishiga hissa qo'shadi. Ushbu tadqiqot ana shu mavjud ishlarga tayanadi, ularni to'ldiradi va O'zbekiston sharoitiga mos bosqichli rivojlanish modelini taklif etish orqali qo'shimcha manba sifatida xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Mazkur tadqiqotning metodologiyasi asosan sifat yondashuviga tayanadi, ya'ni mavjud normativ-huquqiy baza, institutsional infratuzilma, moliya bozori amaliyoti va xalqaro tajriba mazmuniy tahlil asosida solishtirildi va baholandi. Analitik yondashuvda, bir tomondan, O'zbekiston moliya tizimining hozirgi holati (bank markazlashuvi, kapital bozori, moliyaviy inklyuziya darajasi) diagnostika qilindi, ikkinchi tomondan esa, xorijiy mamlakatlarda qo'llangan alternativ moliya yechimlarining qaysi elementlari bosqichma-bosqich milliy

sharoitga moslashtirilishi mumkinligi aniqlashtirildi. Tadqiqot, shuningdek, manfaatdor institutlar - Markaziy bank, tegishli vazirlik va idoralar, oliy ta'lim muassasalari - o'rtasidagi funksional taqsimot va koordinatsiya ehtiyojini konseptual xaritalash orqali implementatsiya uchun amaliy bosqichlarni ishlab chiqadi. Natijada, uslubiy jihatdan tadqiqot nafaqat tavsiflovchi, balki normativ loyihalash yondashuvi xarakteriga ega bo'lib, aniq va tizimlashgan bosqichli rivojlanish modelini asoslab beradi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

2024-yil 26-iyulda "Mikromoliya tashkilotlari tomonidan islomiy moliyalashtirishga oid xizmatlarni ko'rsatish tartibi to'g'risida"gi nizom qabul qilindi. Ushbu nizom mamlakatimizda bugungi kungacha islom moliyasi bo'yicha qabul qilingan yagona huquqiy asos bo'lib, faqatgina mikromoliya tashkilotlarigagina nizomda nazarda tutilgan islomiy moliya xizmatlari ko'rsatish uchun imkon beradi. Afsuski, islom moliyasining eng muhim bo'g'ini bo'lgan Islom bankchiligi, islom kapital bozori va takaful uchun qonuniy asos mavjud emasligi, mamlakatimizda islom moliyasini rivojlanishi yo'lidagi eng katta to'siq hisoblanadi.

O'zbekistonda dual moliya ekotizimini shakllantirish uchun bir necha yo'nalishlarda chora-tadbirlarni amalga oshirishni taklif etamiz. Quyida dual bank ekotizimini shakllantirish uchun amalga oshirilishi kerak bo'lgan ishlardan boshlaymiz.

1-jadval

"Markaziy bank quyidagi asosiy islohotlar yo'nalishlariga e'tibor qaratishi lozim".

Siyosiy muhitni isloh qilish	Shariat boshqaruvi va muvofiqlik	Xabardorlik va salohiyatni oshirish	Bozorni rivojlanishi
Huquqiy, tartibga solish, nazorat, likvidlikni boshqarish, soliq rejimi, moliyaviy hisob va hisobot tizimini tashkil etish	Bu sohada asosiy e'tibor shariat amaliyotlarini standartlashtirish va uyg'unlashtirishga, shuningdek, alohida islom banki mahsulotlari va xizmatlarini ishlab chiqishga qaratilishi kerak.	Mahalliy va xorijiy manfaatdor tomonlar o'rtasida muvofiqlashtirish va hamkorlik qilish, islomiy moliya haqida xabardorlikni oshirish va manfaatdor tomonlarning salohiyatini oshirish uchun sa'y-harakatlarni amalga oshirish kerak.	Mahsulotlarni diversifikatsiya qilish va manfaatdor tomonlarning moliyaviy inklyuziyasi bo'yicha hamkorlik qilish uchun tashabbuslar amalga oshirilishi kerak.
Mazkur vazifalar quyidagilar orqali amalga oshiriladi			
Huquqiy baza, qoidalar va ko'rsatmalarni ishlab chiqish; Havfsizlik standartlari jumladan, Minimal kapital talabini ratsionalizatsiya qilish (MCR), ish olib borilayotgan joyda tekshirish, likvidlikni boshqarish asoslari va moliyaviy hisobot bo'yicha qo'llanma ishlab chiqish	AAOIFI shariat standartlarini qabul qilish; Keng qamrovli shariat boshqaruv tizimini tashkil etish; Mahsulotlarni standartlashtirish va uyg'unlashtirish; G'aznachilik faoliyati bo'yicha ko'rsatmalar/IsMI mahsulotlari qabul qilish	AAOIFI va boshqalar kabi manfaatdor tomonlar o'rtasida muvofiqlashtirish va hamkorlikni amalga oshirish; Xabardorlikni shakllantirish, mutaxassislar salohiyatni oshirish	Mahsulotni diversifikatsiya qilish; moliyaviy inklyuziya qishloq xo'jaligini moliyalashtirish; kichik va o'rta korxonalarni (KO'B)moliyalashtirish; Kam daromadli uy xo'jaliklariga Islom mikromoliyasini taklif qilish; IsMIning bozor ulushini raqamlashtirish

Birinchi yo'nalish. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki huzurida mazkur soha uchun mas'ul maxsus departament tashkil etish, tegishli infratuzilmani shakllantirish, qoida va ko'rsatmalarni ishlab chiqish, xavfsizlik standartlari jumladan, minimal kapital talabini ratsionalizatsiya qilish (MCR), likvidlikni boshqarish asoslari va moliyaviy hisobot bo'yicha qo'llanma ishlab chiqish, AAOIFI shariat standartlarini qabul qilish, keng qamrovli shariat boshqaruv tizimini tashkil etish, mahsulotlarni standartlash va uyg'unlashtirish, g'aznachilik faoliyati bo'yicha ko'rsatmalar/IsMI mahsulotlarini qabul qilish kerak bo'ladi. Markaziy bank tomonidan ushbu amalga oshirilishi kerak bo'lgan chora-tadbirlarni quyidagi 1-jadvalda batafsil tizimlashtirgan holda keltirib o'tdik.

Markaziy bank tomonidan amalga oshirilishi lozim bo'lgan islohotlar bir necha yo'nalishlarga bo'linadi. Birinchi navbatda, siyosiy muhitni takomillashtirish muhim ahamiyat

kasb etadi. Bu jarayon huquqiy bazani mustahkamlash, tartibga solish tizimini rivojlantirish, moliyaviy hisobot hamda monitoring mexanizmini takomillashtirish bilan bog'liq.

Shu bilan birga, soliq tizimi va likvidlik boshqaruvi masalalariga ham alohida e'tibor qaratilishi lozim. Bank sektorining ishonchliligini ta'minlash uchun minimal kapital talablari ratsionalizatsiya qilinishi, risklarni kamaytirishga qaratilgan xavfsizlik standartlari ishlab chiqilishi hamda nazorat mexanizmini kuchaytirish bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshirilishi zarur.

Bundan tashqari, rivojlanayotgan islom moliya tizimiga oid davlatlarning tajribasi, eng avvalo, tegishli me'yoriy-huquqiy bazani ishlab chiqish, tegishli infratuzilmani shakllantirish, aholiga tushuntirish ishlarini olib borish, investor davlatlar bilan xalqaro hamkorlikni mustahkamlash zarurligini ko'rsatadi.

Ikkinchi yo'nalish. 2-jadval yuqoridagi 1-jadvalning bevosita uzviy davomi hisoblanib, asosiy chora-tadbirlarni amalga oshiruvchi mas'ul organ sifatida O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ko'rsatilgan. Ushbu jadval O'zbekistonlik olim S.Z. Abrorov tomonidan 2020-yilda taqdim etilgan O'zbekistonda sukuk – islomiy qimmatli qog'ozlarni joriy etish istiqbollari nomli nomzodlik dissertatsiyasidan o'rin olgan ishlanma hamda kamina tomonidan kiritilgan bazi qo'shimchalar bilan tuzilgan. Islom moliyasi instrumentlarini qo'llash imkoniyatlarini o'rganish uchun islom iqtisodiyotiga ixtisoslashgan oliy ta'lim va ilmiy tadqiqot muassasalari, iqtisodiy-moliyaviy blokka oid davlat tashkilotlari vakillari, O'zbekiston musulmonlar idorasi va sohaga oid boshqa mutaxassislardan tarkib topgan respublika ishchi guruhini (keyingi o'rinlarda Ishchi guruh) tashkil etish jarayonning tizimli ravishda olib borilishini kafolatlaydi. Ishchi guruh tarkibiga xoriждан soha mutaxassislarini ham jalb etish maqsadga muvofiq.

2-jadval

O'zbekistonda islom moliya tizimini rivojlantirish yo'lida amalga oshirilishi kerak bo'lgan chora-tadbirlarning ikkinchi yo'nalishi


№	Chora-tadbirlar	Mas'ul ijrochilar
1	Islom taraqqiyot banki va Islomiy moliyaviy muassasalar uchun buxgalteriya va audit tashkiloti (AAOIFI) bilan O'zbekistonga islom moliya tizimini rivojlantirish bo'yicha maslahatlashuvlar o'tkazish	O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, O'zbekiston Respublikasi investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi
2	Islom moliyasi instrumentlarini qo'llash imkoniyatlarini o'rganish bo'yicha mutaxassislar ishchi guruhini tashkil etish. Ishchi guruh tarkibiga xoriждан soha mutaxassislarini ham jalb etish	O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, O'zbekiston Respublikasi investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi
3	Islom moliyasi faoliyatiga aloqador va daxldor bo'lgan barcha normativ huquqiy hujjatlarni ushbu yo'nalishga zid keluvchi bandlarini moslashtirish	O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, O'zbekiston Respublikasi investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi

Ishchi guruh tomonidan islom moliya tizimiga aloqador va daxldor bo'lgan barcha normativ huquqiy hujjatlar o'rganib chiqilsa, qonunchilikni o'zgartirish ko'lami ma'lum bo'ladi. Keyingi jarayon qonunchilikka tegishli o'zgartirish kiritish bilan amalga oshiriladi.

Mazkur sohani O'zbekistonda ishlashini tashkil etish uchun birinchi galda me'yoriy-huquqiy asosini ishlab chiqish kerak bo'lib, uni amalga oshirishda ikki xil yondashuvdan birini tanlash lozim, ya'ni umuman islomiy moliya faoliyatini tartibga soluvchi yagona qonun hujjatlarini qabul qilinishi yoki sohaning har bir alohida sohasini muvofiqlashtiruvchi bir

nechta huquqiy hujjatlarni qabul qilish kerak bo'ladi. Ikkinchi yondashuvga ko'ra islom bank ishi, islom sug'urtasi (takaful) va islom kapital bozorlar kabi har bir sektor uchun huquqiy hujjatlar ishlab chiqilishi va qabul qilinishi kerak. Ikkinchi yondashuvni amalga oshirish osonroq va tezroq bo'lib, Turkiya ham aynan ushbu yondashuvni tanlagan. Bundan tashqari, butun islom moliya sanoati uchun keng qamrovli tartibga soluvchi yagona qonunchilikni ishlab chiqish qiyin va uzoq vaqt talab etadi.

Uchinchi muhim islohot yo'nalishida Markaziy bank huzurida islom huquqini yaxshi biladigan olimlar va soha mutaxassislari a'zo bo'lgan Shariat kengashini tashkil etish lozim. Buni markazlashgan tartibda tuzilishi ya'ni barcha islom moliya xizmatlari ko'rsatuvchi barcha moliya muassasalari uchun bitta bo'lsa boshlanishida maqsadga muvofiq bo'ladi (1-rasm, muallifning shaxsiy ishlanmasi). Shariat kengashi a'zolari mahalliy olim va mutaxassislar ishtirokida tuzilishi ham, xorijdan jalb qilingan olim va mutaxassislarning ishtirokida tuzilishi ham mumkin. Shariat kengashi tarkibida amaldagi qonunchilikni biladigan huquqshunos va moliyachilarning ham bo'lgani to'g'ri bo'ladi, chunki shunda ishlab chiqilgan moliyaviy mahsulotlar (shartnomalar, xizmat turlari...) islom huquqiga muvofiq bo'lishi va shu bilan birga amaldagi qonunchilikka zid bo'lmasligi ta'minlanadi.



1-rasm. Markaziy bank strukturasida islom moliyasini boshqarish arxitekturası.

Buni markazlashgan tartibda tuzilishi ya'ni barcha islom moliya xizmatlari ko'rsatuvchi barcha moliya muassasalari uchun bitta bo'lsa boshlanishida maqsadga muvofiq bo'ladi (1-rasm, muallifning shaxsiy ishlanmasi). Shariat kengashi a'zolari mahalliy olim va mutaxassislar ishtirokida tuzilishi ham, xorijdan jalb qilingan olim va mutaxassislar ishtirokida tuzilishi ham mumkin. Shariat kengashi tarkibida amaldagi qonunchilikni biladigan huquqshunos va moliyachilarning ham bo'lgani to'g'ri bo'ladi, chunki shunda ishlab chiqilgan moliyaviy mahsulotlar (shartnomalar, xizmat turlari...) islom huquqiga muvofiq bo'lishi va shu bilan birga amaldagi qonunchilikka zid bo'lmasligi ta'minlanadi.

Islomiy moliyalashtirishni Markaziy bank tuzilmasida boshqarish tizimi bir nechta asosiy bo'g'inlardan tashkil topgan bo'lib, ularning har biri o'ziga xos funksiyalarga ega. Mazkur tizimning markaziy elementi sifatida bank regulyatori – Markaziy bank xizmat qiladi. Aynan u butun moliyaviy muhitni nazorat qilish, strategik yo'nalishlarni belgilash va moliyaviy barqarorlikni ta'minlashga mas'ul hisoblanadi. Islomiy banklarning korporativ boshqaruv tuzilmasi ichida bir necha muhim tarkibiy qismlar mavjud. Xususan, direktorlar kengashi ijrochi menejmentga topshiriqlar berib, ichki audit tizimi orqali nazorat funksiyasini amalga oshiradi.

Bankning amaliy faoliyati esa to'g'ridan-to'g'ri mijozlar va omonatchilar bilan ishlashni qamrab oladi. Audit Shariat kengashi tomonidan amalga oshiriladi. Shuningdek, Markaziy bank qoshidagi maxsus strategik rivojlanish departamenti islomiy moliyaning o'sish yo'nalishlarini belgilash va ilgari surish vazifasini bajaradi.

Islomiy moliyalashtirish tizimidagi muhim bo'g'inlardan yana biri risk boshqaruvi departamentidir. Bu bo'linma islomiy moliyaviy operatsiyalarda mavjud bo'lishi mumkin bo'lgan xavflarni baholash, ularning oldini olish va muqobil yechimlarni ishlab chiqish bilan shug'ullanadi. Bunga qo'shimcha ravishda, Islomiy moliya statistikasi va tadqiqoti bo'limi tahliliy ishlarni olib borib, sohaga oid aniq raqamlar va tendensiyalarni kuzatib boradi.

Islomiy moliya institutlari va investorlar bilan aloqalar departamenti esa xalqaro moliya institutlari hamda xususiy investorlar bilan hamkorlik qilishga qaratilgan. Bu bo'lim islomiy moliyalashtirishni rivojlantirish uchun xalqaro tajribani o'rganish va xorijiy investitsiyalarni jalb etish bo'yicha ishlaydi.

So'nggi bosqichda esa islomiy mikromoliyalashtirishni taklif etuvchi mikromoliya tashkilotlari islomiy moliyaning inklyuzivligini ta'minlash uchun aholi va tadbirkorlik subyektlariga moliyaviy xizmatlar ko'rsatadi. Bunday tashkilotlar kam daromadli qatlamlar va kichik biznes egalari uchun moliyaviy imkoniyatlarni kengaytirishga xizmat qiladi.

Ushbu tizim islomiy moliyalashtirishning barcha jihatlarini qamrab oluvchi, har tomonlama uyg'unlashtirilgan boshqaruv mexanizmini ifodalaydi. Bu tuzilma nafaqat islomiy moliyaviy mahsulotlarning shariat qoidalariga mosligini ta'minlaydi, balki ularning samarali va xavfsiz faoliyat yuritishini ham kafolatlaydi.

Islomiy moliya tizimining ishonchligini oshirish uchun xalqaro standartlar, xususan, AAOIFI shariat standartlari joriy etilishi va bu borada yagona tartib-qoidalar ishlab chiqilishi lozim. Shu bilan birga, islomiy bank mahsulotlari va xizmatlarini standartlashtirish, ularning o'ziga xos jihatlarini inobatga olgan holda huquqiy asos yaratish ham talab etiladi. G'aznachilik faoliyatini shariatga mos tarzda shakllantirish va Islomiy moliya mahsulotlari bo'yicha maxsus yo'riqnomalar ishlab chiqish bu sohaning yanada rivojlanishiga xizmat qiladi.

4-yo'nalish. Kadrlar tayyorlash va aholi savodxonligini oshirish (Islom moliyasi bo'yicha xabardorlik va bilim darajasi) (3-jadval).

Islom moliyasi bo'yicha kadrlar tayyorlash siyosatiga e'tibor qaratish, ushbu soha bo'yicha kadrlar tayyorlashni tashkil etish, jumladan, dasturlar bakalavr va magistratura dasturlarini taklif etish (bu bo'yicha Turkiya tajribasiga qaralmog'i lozim), ushbu soha bo'yicha amalga oshiriladigan tadqiqotlar sonini oshirishga rag'batlar yaratish hamda yuqorida taklif etganimizdek, Markaziy bank huzurida ushbu soha uchun tadqiqot instituti/markazi tashkil etish lozim (1-rasm).

Bu taklifning amalga oshirilishi nafaqat O'zbekiston uchun sifatli kadrlar tayyorlash imkonini berish bilan birgalikda barcha qo'shni mamlakatlar, MDH mamlakatlari va boshqa Osiyo mamlakatlaridan O'zbekistonga kelib o'qiydigan xorijiy talabalar sonini oshishiga imkoniyat (bu yo'nalishda ham chet el valutalari kirib kelish oqimi oshgan bo'lar edi) berar edi. O'zbekistonda boshqa MDH mamlakatlariga qaraganda boy tarix va ushbu soha uchun malakali kadrlar tayyorlash uchun yetarli salohiyat mavjud, buni inobatga olish lozim. MDH mamlakatlari ichida Toshkent Islom moliya markaziga aylanish imkoniyati mavjud, agar bor salohiyatdan foydalangan holda kerakli chora-tadbirlar ko'rilishi lozim.

Quyidagi 3-jadvalda O'zbekistonlik olim S.Z. Abrorov tomonidan 2020-yilda taqdim etilgan O'zbekistonda sukuk – islomiy qimmatli qog'ozlarni joriy etish istiqbollari nomli nomzodlik dissertatsiyasida o'rin olgan ishlanma hamda kamina tomonidan kiritilgan bazi qo'shimchalar bilan O'zbekistonda islom moliya tizimini rivojlantirish yo'lida amalga oshirilishi kerak bo'lgan chora-tadbirlarning 4-yo'nalishi taqdim etilgan.

3-jadval

**O'zbekistonda islom moliya tizimini rivojlantirish yo'lida amalga oshirilishi
kerak bo'lgan chora-tadbirlarning 4-yo'nalishi**

No	Chora-tadbirlar	Mas'ul ijrochilar
11	O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi, O'zbekiston Bank moliya akademiyasi va Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida Islom bank ishi va moliyasi bakalavriat yo'nalishi va magistratura mutaxassisliklari bo'yicha kadrlar tayyorlashni yo'lga qo'yish.	O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo'yicha qo'mita, O'zbekiston musulmonlar idorasi
22	Shariat kengashiga kadrlar tayyorlash uchun moliya va diniy soha vakillaridan iborat mutaxassislar malakasini oshirish maqsadida xorijdan yetuk mutaxassislarni jalb etgan holda o'quv kurslarini tashkil etish	Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo'yicha qo'mita, O'zbekiston musulmonlar idorasi
33	Islom moliyasi mavzusida har yili o'tkaziladigan xalqaro forum va konferensiyalarni tashkil etish	O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi, O'zbekiston Bank moliya akademiyasi, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
44	Islom moliyasi mavzusida respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi va seminarlarni tashkil etish	O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi, O'zbekiston Bank moliya akademiyasi, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
55	Islom moliyasi bo'yicha kadrlar malakasini oshirish va stajirovkaga mutaxassislarni xorijda tayyorlash hamda vatandoshlar bilan muloqot qilish bo'yicha "El-yurt umidi" jamg'armasi stipendiyalari va Innovatsion rivojlanish agentligining "Yosh olimlarni xorijga qisqa muddatli stajirovkalarga yuborish" loyihalari orqali har yili nomzodlarni yuborish	"El-yurt umidi" jamg'armasi, Innovatsion rivojlanish agentligi, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zbekiston Bank moliya akademiyasi

Malakali kadrlar tayyorlash uzoq muddatli jarayon ekanligini hisobga olgan holda, islom iqtisodiyoti va moliyasi mutaxassisligi uchun OTMda kvotani ochish va bosqichma-bosqich oshirib borish muhim hisoblanadi. Bu kelgusida rivojlanish uchun yuqori salohiyatga ega yangi soha uchun mahalliy kadrlar bilan ta'minlashda vaqtni tejash imkonini beradi.

Mahalliy va xalqaro manfaatdor tomonlar o'rtasida hamkorlikni kengaytirish, islomiy moliya tizimining afzalliklari va imkoniyatlari haqida kengroq targ'ibot ishlarini olib borish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday ma'lumotlarning yetkazilishi uchun maxsus dasturlar ishlab chiqilishi, ilmiy-amaliy anjumanlar tashkil etilishi hamda malakali kadrlar tayyorlash bo'yicha strategik dasturlar ishlab chiqilishi lozim. Bu esa shariat talablariga mos bo'lgan moliyaviy operatsiyalarni kengroq joriy etish va soha mutaxassislarining saviyasini oshirish imkonini beradi.

Aholi va biznes sektori vakillarining islom moliyasi bo'yicha xabardorlik va bilim darajalarini oshirish maqsadida quyidagi chora-tadbirlarni tizimli ravishda amalga oshirish lozim:

-xalqaro forum va konferensiyalar tashkil etish kerak. Har yili mamlakatda islom moliya tizimi masalalariga bag'ishlangan xalqaro forum va konferensiyalar o'tkazish. Bu tadbirlarni

onlayn platformalar orqali bevosita translyatsiya qilish va natijalarini ijtimoiy tarmoqlarda tarqatish orqali keng jamoatchilikni jalb qilish;

- respublika ilmiy-amaliy konferensiyalari va seminarlari sonini oshirish. Bu tadbirlar orqali islom moliyasining nazariy va amaliy jihatlarini yoritiladi, yangi bilimlar va tajribalar almashinuvi ta'minlanadi;

- o'quv qo'llanmalar va resurslarni ishlab chiqish. Islom moliyasining mazmun-mohiyati, asosiy tushunchalari va nazariy asoslarini o'z ichiga olgan o'quv qo'llanmalar, ma'ruzalar va onlayn kurslarni ishlab chiqish. Bu resurslarni oliy ta'lim muassasalari, biznes maktablari va keng jamoatchilikka taqdim etish;

- kichik va o'rta biznes vakillari uchun islom moliyasi tamoyillari va amaliyotlari bo'yicha maxsus treninglar va seminarlar tashkil etish;

- ijtimoiy tarmoqlar (telegram, you tube, instagram va boshqalar) orqali islom moliyasi mavzusi bo'yicha ma'lumotlarni uzatuvchi kanallarni yuritishni oshirish;

- qisqa metrajli videoroliklar ishlab chiqish hamda ularni turli ijtimoiy platformalar orqali keng auditoriyaga yetkazish;

- ilmiy va ommabop maqolalar nashr etilishini hukumat tomonidan rag'batlantirish tizimini ishlab chiqish lozim.

Tadqiqotimizning keyingi qismida O'zbekistonda Islom kapital bozori ekotizimini shakllantirish uchun amalga oshirilishi lozim bo'lgan chora-tadbirlarning yo'nalishlari hamda ularning bosqichlarini keltirib o'tamiz.

O'zbekiston aholisining turli ma'lumotlarga ko'ra o'rtacha 90 foizi musulmonlar ekanligi islom tamoyillariga kapital bozori uchun talab mavjudligini anglatadi. Biroq mazkur faoliyat bo'yicha aholi savodxonligi yetarli darajada emasligi va soha mutaxassislarining yetarli emasligi islomiy qimmatli qog'ozlar sektori rivoji uchun birlamchi to'siq bo'ladi. Ushbu muammolar O'zbekistonda islom kapital bozori ekotizimini shakllantirishni bir necha bosqichlarda amalga oshirishni talab etadi.


Islom kapital bozori ekotizimini shakllanishi, rivojlanish tendensiyasi va bugungi kundagi faoliyati bo'yicha Malayziya va boshqa xorijiy mamlakatlar tajribasi hamda mamlakatimiz sharoitini o'rgangan holda, islom kapital bozori ekotizimini O'zbekiston kapital bozorida shakllantirishni uch bosqichda amalga oshirishni va bu bosqichlar O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan tasdiqlanishini taklif etamiz (2-rasm). Ushbu taklif O'zbekistonlik olim S.Z. Abrorov tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, muallif tomonidan 2024-yilda taqdim etilgan "Islom kapital bozori ekotizimini shakllantirish istiqbollari" nomli monografiyasida keltirilgan.

1-bosqich. Institutsional asoslarni yaratish. Mazkur bosqich bir vaqtda davom etuvchi ikki yo'nalishga bo'linadi:

1-yo'nalish. Moliyalashtirish infratuzilmasini shakllantirish va kadrlar tayyorlash hamda aholi savodxonligini oshirish.

Dualistik moliyaviy tizimga ega mamlakatlar tajribasidan ma'lumki islom moliyasi turli jamg'arma va homiylik fondlari tashkil etish bilan boshlangan. Mamlakatimizda Vaqf fondi faoliyat yuritadi. Ushbu fond faoliyatini kengaytirish, unga haj va umra safari uchun mablag'larni jamg'arish faoliyat yo'nalishini ham joriy etish hamda yangidan O'zbekiston islom taraqqiyot fondini tashkil etish orqali ijtimoiy yordamga muhtoj aholi qatlamiga moliyaviy resurslarni qayta taqsimlash tizimi yanada rivojlanishi hamda kelgusida islom moliyaviy tizimi uchun resurslarga erishish imkoniyati yaratiladi. Malayziya tajribasida haj va umra safari uchun mablag'larni jamg'arib boruvchi fond yuqori darajada samara berganligi kuzatilgan.

Kadrlar tayyorlash va aholi savodxonligini oshirish ishlari yuqorida keltirib o'tilgan tartibda amalga oshiriladi.



2-rasm. O'zbekistonda islom kapital bozori ekotizimini shakllantirish metodologiyasining bosqichlari

2-yo'nalish. Huquqiy asoslarni yaratish. Ushbu yo'nalish bo'yicha ham yuqorida batafsil to'xtalib o'tganmiz.

2-bosqich. Islom kapital bozori instrumentlarini tadbiq etish.

Xorij tajribasidan anglashiladiki yangi yo'nalish tatbiq etilishi davlat tomonidan boshlab berilishi unga bo'lgan ishonch darajasini oshiradi. Sukukning O'zbekistondagi dastlabki emissiyasini ham davlat amalga oshirishi kelgusida barcha emitentlar uchun tajriba vazifasini bajaradi.

Mamlakatimizda islom kapital bozori instrumentlariga nisbatan talabni aniq qiymatini aniqlash maqsadida kamida 10 000 respondentni qamrab oluvchi so'rovnoma o'tkazish, natijalarini o'rganish va tahlil qilish lozim.

O'rganishlar yakunlariga ko'ra davlat loyihasini (ijtimoiy uylar qurilishi, pulli trassalar qurilishi va boshqalar) amalga oshirish uchun sukuk emissiya qilinadi (sukuk turi loyihaga ko'ra tanlanadi).

Emitentlar uchun sukuk emissiyasi, faoliyati va so'ndirilishining barcha bosqichlarini yoritib beruvchi qo'llanma ishlab chiqish va soha bo'yicha tayanch oliy ta'lim muassasasida o'quv kurslarini tashkil etish muhim qadam hisoblanadi.

3-bosqich. Rivojlanish dasturini ishlab chiqish.

O'zbekistonda islomiy qimmatli qog'ozlar faoliyatini rivojlantirish muammolari va istiqbollarni o'rganish bilan shug'ullanuvchi ilmiy-tadqiqot muassasasini tashkil etish lozim.

Sanab o'tilgan chora tadbirlar amalga oshirilgach so'nggi bosqichda O'zbekiston kapital bozori uchun yangi imkoniyatlar yuzaga kelishi, qo'lga kiritilgan tajriba asosida bozorning samaradorligini oshirish, jahon hamjamiyatidagi O'zbekiston imijini oshirish va islom kapital bozori orqali investitsiya jalb etish hajmini yanada oshirishga qaratilgan islom kapital bozorini rivojlantirishning uzoq muddatli dasturini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuqoridagi takliflarning barchasi kapital bozorida yangi moliyaviy instrumentlarni joriy qilishga qaratilganligini inobatga olib, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori qabul qilingan holda Iqtisodiyot va moliya vazirligini muvofiqlashtiruvchi organ sifatida belgilanishi maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Bundan tashqari, tayyorlangan takliflardan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston - 2030" strategiyasi to'g'risida"gi farmonida ham foydalanish mumkin. Bu orqali O'zbekiston kapital bozoriga yangi moliyaviy instrumentlarning joriy qilish jarayoni jadallashadi.

2025-yil 20-may kuni Yevrosiyo taraqqiyot banki (EDB), Islom taraqqiyot banki instituti (IsDBI) va London fond birjasi guruhi (LSEG) bilan hamkorlikda "Markaziy Osiyoda islom moliyasining kelajagi" nomli hisobotni e'lon qildi. Ushbu hisobot Markaziy Osiyoda islom moliyasining joriy holati, rivojlanish sur'atlari va kelajak istiqbollari bo'yicha keng qamrovli tahlilni taqdim etadi.

Hisobotda qayd etilishicha, 2023-yilda Markaziy Osiyoda islom moliyasi aktivlari hajmi 699 million dollarni tashkil qilgan bo'lsa, 2033-yilga borib, mintaqadagi islom banklari aktivlari hajmi 6,3 milliard dollarga, jami sukuk hajmi esa 5,6 milliard dollarga yetishi kutilmoqda. Ushbu prognozlar Markaziy Osiyo mamlakatlarida islom moliyasiga bo'lgan talabning sezilarli darajada o'sishini ko'rsatadi. Agar faqat O'zbekistonni oladigan bo'lsak, mamlakatning islom moliyasi aktivlari hajmi 2028-yilga borib 1,1 milliard dollar, 2033-yilga kelib esa 2,4 milliard dollar darajasiga yetishi kutilmoqda. Shu bilan birga, O'zbekistonda sukuk bozori ham jadal rivojlanadi; joriy prognozlarga ko'ra, 2028-yilga borib jami sukuk hajmi 601 million dollar, 2033-yilda esa 1,9 milliard dollarni tashkil etadi. Bu raqamlar O'zbekistonning islom moliyasi sohasida katta potentsialga ega ekanligini va yaqin o'n yillikda mintaqaviy moliyaviy markazga aylanish imkoniyatini ko'rsatadi.

Hisobotda ta'kidlanishicha, hozirgi kunda Markaziy Osiyoda islom moliyasi sohasida Qozog'iston yetakchi mamlakat sifatida qolmoqda, biroq O'zbekistonning moliyaviy infratuzilmasi va iqtisodiy resurslari mintaqada raqobatbardoshligini oshirish imkoniyatlarini yaratadi. Shu munosabat bilan, hisobotda sohani rivojlantirish uchun bir qator tavsiyalar berilgan. Jumladan, islom moliyasini keng joriy etish uchun soha faoliyatini xalqaro standartlarga moslashtiruvchi huquqiy asoslar yaratish, malakali kadrlar tayyorlash va ularni jalb qilish, aholining islom moliyasi bo'yicha xabardorlik darajasini oshirish hamda ilg'or moliyaviy va raqamli texnologiyalardan foydalanish muhimligi alohida ta'kidlangan. Shu bilan birga, hisobot Markaziy Osiyo mamlakatlarida islom moliyasining iqtisodiy barqarorlik, investitsiyalarni jalb qilish va moliyaviy inklyuziya sohasidagi rolini ta'kidlab, mamlakatlar uchun strategik yo'nalishlarni belgilashga yordam beradi.

Xulosa va takliflar.

Olib borgan tadqiqotimiz asosida xulosa qiladigan bo'lsak, O'zbekiston moliya bozorida alternativ moliya ekotizimini rivojlantirish mamlakat iqtisodiy barqarorligi, investitsiya jalb qilish salohiyati va moliyaviy inklyuziyani oshirish uchun strategik ahamiyatga ega. An'anaviy moliya vositalari mavjud imkoniyatlarni to'liq qoplamasligi xususan, kichik va o'rta biznes, startaplar va innovatsion loyihalarni yetarlicha moliyalashtira olmasligi natijasida hamda diniy qarashlariga ko'ra an'anaviy moliyalashtirishdan ajralib qolgan aholi va biznes sektori vakillarini islomiy moliya orqali moliya sanoatiga jalb etishda alternativ moliya muhim moliyaviy tizim sifatida jahonda kengayib bormoqda.

Xorijiy tajribalar shuni ko'rsatadiki, mazkur muqobil moliya mamlakat moliya tizimini diversifikatsiyalash, innovatsion rivojlanishni rag'batlantirish va barqarorlikni oshirishda samarali vosita hisoblanadi. Jumladan, islomiy moliya bozorining rivojlanishi mamlakatda islom huquqiga mos investitsiya mahsulotlarini joriy etish orqali nafaqat ichki investorlarning, balki xalqaro moliya institutlarining e'tiborini jalb qiladi. Shu bilan birga, sukuk emissiyalari ekologik barqarorlik va ijtimoiy mas'uliyat tamoyillarini ilgari suradi, bu esa barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda muhim rol o'ynaydi.

O'zbekistonda alternativ moliya ekotizimini shakllantirish uchun normativ-huquqiy bazani ishlab chiqish, Shariat nazorat tizimi va moliyaviy institutlarni yaratish, pilot loyihalarni amalga oshirish va xalqaro standartlarga mos ekotizimni bosqichma-bosqich rivojlantirish zarur. Shu jarayonda dual bank tizimi va islom kapital bozorining shakllanishi mamlakatning moliya xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytiradi, ichki va tashqi investitsiya oqimlarini oshiradi, iqtisodiy o'sish sur'atlarini tezlashtiradi hamda global moliya bozorida raqobatbardosh pozitsiyani mustahkamlaydi. Shunday qilib, O'zbekiston moliya bozorida alternativ moliya ekotizimi nafaqat moliyaviy innovatsiyalarni rag'batlantiruvchi, balki barqaror iqtisodiy o'sish, ijtimoiy rivojlanish va xalqaro moliyaviy integratsiyani kuchaytiruvchi strategik vosita sifatida xizmat qilishi mumkin. Bu esa mamlakatning moliya tizimida diversifikatsiyalash, risklarni kamaytirish va uzoq muddatli barqarorlikni ta'minlashga keng imkoniyatlar yaratadi.

Tadqiqotimizda ishlab chiqilganidek bosqichma-bosqich ushbu yo'nalishlarda ishlarni olib borilishi, mamlakatimizda alternativ moliya ekotizimini rivojlantirish imkonini beradi

Adabiyotlar/Jumepamypa/References:

Abdukarimov, A., Karimova, N. (2020). *Financial inclusion constraints and alternative financing channels for SMEs in Central Asia*. *Central Asian Journal of Economic Studies*, 12(3), 45-62.

Abrorov S.Z. (2024) "Islom kapita bozori ekotizimini shakllantirish istiqbollari" monografiyasi, "Demal" nashriyoti.

Abrorov S.Z. (2025). *Islom kapital bozori ekotizimida moliyaviy instrumentlarning ahamiyati*. "Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil" ilmiy elektron jurnali, № 1 soni. 15-22 b.

Arner, D.W., Barberis, J., & Buckley, R. P. (2016). *The evolution of fintech: A new post-crisis paradigm?* *Georgetown Journal of International Law*, 47(4), 1271-1319.

Chapra, M.U. (2008). *The global financial crisis: Can Islamic finance help minimize the severity and frequency of such a crisis?* Islamic Development Bank.

El-Gamal, M.A. (2006). *Islamic finance: Law, economics, and practice*. Cambridge University Press.

Irgasheva G.S., Zayniddinov R.X (2024). *Ijara (islomiy lizing) va an'anaviy lizingning qiyosiy tahlili*. *Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil ilmiy elektron jurnali* 2 son - fevral, www.e-itt.uz.

Levine, R., & Zervos, S. (1998). *Stock markets, banks, and economic growth*. *American Economic Review*, 88(3), 537-558.

Nabiyev, R. (2019). *Islamic finance instruments and investment diversification in CIS economies*. *Post-Soviet Financial Review*, 8(1), 61-79.

Sabitov, M. (2021). *Regulatory frameworks for Islamic finance in Kazakhstan: Lessons for Eurasian integration*. *Eurasian Finance and Law Review*, 9(2), 88-104.

Zayniddinov R.X. (2025). *Dualistik moliya tizimiga ega Malayziya, Indoneziya va Bangladeshning moliya bozori holati tahlili*. "Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil" ilmiy elektron jurnali, № 1 soni. 244-253 b.

Zayniddinov R.X. (2025). *Turkiya va BAAning dualistik moliya tizimi holati tahlili*. "Ilg'or iqtisodiyot va pedagogik texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali, № 1 soni. 163-173 b.

Ziegler, T., Shneor, R., Wenzlaff, K., & Zhang, B. (2021) *The global alternative finance market benchmark report*. Cambridge Centre for Alternative Finance.